

**AN'ANAVI HONANDALIK YO 'NALISHI TALABALARIGA YAKKA  
HONANDALIK DARSLARIDA O 'Z IJRO USULLARI USTIDA ISHLASH  
KO'NIKMALARINI O 'RGATISH JARAYONALARI****Azamkulov Gayrat Otaqo'ziyevich**

Guliston davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maqom honandaligi yakka darslarida talabalarni o'z ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy-amaliy asoslari yoritilib berilgan. Yakka honandalik darslarida talabalarning o'z ijro usullari ustida ishlash jarayonlarida ustozning to'g'ri yo'naltirishining ahamiyati, honandalik savodi, qunt, mehnat, tinglash va milliy musiqa merosimizga hurmatni o'rganish lozimligi hususida fikrlar keltirilib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** maqom, ustoz – shogird, an'ana, musiqiy meros, ijro yo'llari, tajriba, ko'nikma, honanda.

Ta'lim-tarbiya jamiyatning, millatning kelajagini, ertangi porloq kunlarini ta'minlaydigan butun dunyo miqiyosidagi qadr qimmatini belgilaydigan ustuvor omil hisoblanadi. Azaliy qadriyatlar zamirida qaror topgan boy milliy musiqa merosimizning o'rganish masalalari yangi bosqichga ko'tarilmoqda. O'zbek xalq og'zaki an'anasidagi kasbiy san'at asarlarining xalq e'zoziga tushishi, maqom ashulalarining, katta ashulalarining va maqom yo'llaridagi mumtoz asarlarining ijrochilik taomilidan munosib o'rin egallashi bu jarayonga o'zgacha salohiyat baxsh etdi. Bugungi kunda ularni tadqiq etish, pedagogik ta'lim tizimida ularning o'rganilishini o'tmish va bugungi kun misolida tahlil qilish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Shunnigdek, har qanday san'at turi har xil vositalar orqali hayotiy voqelikni aks ettirishga qodir ekan, so'nggi yuz yillik



mobaynida O'zbekiston musiqasining rivojlanishi nechog'lik murakkab va o'zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarda kechganini yaqqol tasavvur qilish va uni tadqiq etish ustivor ahamiyat kasb etib bormoqda. Ma'lumki maqom ta'limotini o'rganish mazkur muhtasham san'at paydo bo'lishidan boshlab vujudga kelgan. Qolaversa maqom san'atini o'rgatilishi, ta'lim shakllari uzoq o'tmishdan shakllanib bugungi kunga qadar taraqqiy etib kelmoqda.

Ortda qolgan yillar mobaynida Yangi O'zbekiston muhitida ulkan tarixiy jarayonlar san'at sohasida ham o'z ini'kosini topmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabr PQ-3391-sonli “O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son maqom ijrochiligi, baxshichilik va katta ashula yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlovchi tayanch oliy ta'lim muassasasi — Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti tashkil etilganligi ham olamshumul voqea sifatida e'tirofqa loyiqdir<sup>2</sup>. Mazkur institut yurtimizda maqom, xalq musiqasi, baxshichilik va katta ashula ijrochiligini yanada rivojlantirish, bu borada shakllangan ijro va ijodiy maktablar va an'analarni, buyuk bastakorlar, hofiz va sozandalar merosini chuqur ilmiy asosda o'rganish va qayta tiklash bilan shug'ullanadi. Shuningdek, mumtoz musiqa merosimiz namunalarini notaga olish, mavjud yozuvlarni takomillashtirish va amaliyotga joriy etish kabi qator vazifalarni bajaradi.

Har qanday sohani o'rganish, shu yo'nalishda izlanishlar olib borish, ilm qilish va eng asosiysi ushbu sohada ustoz sifatida bilim berib shogirdlar chiqarishdek ma'suliyatni bo'ynimizga olgan ekanmiz biz avvalo shu sohaning sir sinoatini, uning kelib chiqishi tarixini, kechagi hamda bugungi kundagi holati haqida aniq va ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lishimiz shart. Xo'sh biz bilamizki maqom san'ati an'anaviy xonandalikning asosi va avvalo maqom nima? Qachon va qayerda vujudga kelgan/rivojlanish davrlari haqida ma'lumotlarni bosqichma bosqich o'qib o'rganib boramiz. Bugungi kunda maqom xonandaligi fanini o'rgatishda biz mavjud bilimlar va an'analarga tayanamiz. Bizga ma'lumki “Shashmaqom” buxoro, Xorazim, Farg'ona - Toshkent maqom yo'llari va har



bir hududning o‘ziga hos yo‘li usullari mavjuddir. “Shashmaqom” gacha bo‘lgan davrda “O‘n ikki maqom” turkumi mavjud bo‘lgan va vaqtlar o‘tib qisqartirishlar, o‘zgartirishlarga uchrab Shashmaqom turkumi sifatida yashashda davom etmoqda. XVI-XVII asrlarda yashab ijod etgan musiqa olimlaridan Najmiddin Kavkabi va Darvishali Changiy risolalarida Buxoro xonligi davrida joriy etilgan “O‘n ikki maqom” hamda ular asosida kuy va ashulalar bastalagan san’atkorlar haqida ma’lumotlar bor. Demak, bundan “O‘n ikki maqom” O‘rta Osiyoda XVII asrda ham qo‘llanilgan,- degan xulosaga kelishi mumkin. Maqomlarning dastlabki namunalari Sharqda hozirgidek nota yozuvi bo‘lmagani uchun bizgacha etib kelmagan. “An’anaviy xonandalik” xonandalik san’atiga xos o‘quv malakalarini shakllantirish, ularga xalq qo‘shiqlarini yakka holda yoki, jamoa bo‘lib kuylay olish va maqom guruhlarini tashkil qila olish psixologiyasi bo‘yicha mukammal bilim berish va jamoaga rahbarlik qila olish xususiyatlarini singdirishdan iborat.<sup>1</sup>

An’anaviy xonandalik bir qator uzluksiz rivojlanib boruvchi omillarga tayanadi: kuy, she’r matnini puxta o‘rganish, ijro maqsadini imkon qadar to‘la ochib berish, ovoz yo‘nalishidagi omomentik qoidalarni aniq ifodalash ana shunday omillardandir. Milliy musiqiy bezaklar, ovozning o‘zbekona tuslanishi va sadolanishini ta’minlash, ijro jarayonini to‘laligicha va alohida-alohida holda uni o‘rab turgan ijroviy-ijodiy, ilmiy-nazariy tomonlarini qiyosiy o‘rganish san’atkorlar oldida turgan asosiy vazifalardan biri. Ijroni qiyosiy o‘rganish, tahlil qilish, mohiyatini anglashda innovatsion vositalar, xususan ovoqli yozuvlar va albatta ustozona jonli ijrolardan foydalanish talab etiladi. Ushbu jarayonlar negizida ham pedagogik mahorat yotadi aslida. Ko‘pgina ustozlar shogirdlari bilan dastlabki uchrashuvlarda cholg‘u sozi sifatidagi ijrochilik imkoniyatlari, cholg‘ular orasidagi o‘rni, ahamiyati, o‘zining ustozlari xaqida ma’lumotlar bergan. So‘ngra keyingi mashg‘ulotlarning vaqti va tartibini belgilaganlar. Ko‘plab ustozlarimiz e’tibor qaratgan asosiy sifat bu intizom - an’anaviy xalq pedagogikasining o‘zgarmas, qat’iy qonuni bo‘lib, unga rioya qilmaslik jiddiy nuqson sanalgan. Ustoz shogirdning ayni paytda ijro etish usullarini egallashi hamda ijro etilayotgan kuy-ohanglar mazmunini idrok etib

<sup>1</sup><https://cyberleninka.ru/article/n/an-anaviy-xonandalik-yo-nalishi-bo-lajak-mutahasislariga-bilim-berishda-pedagogik-kompetensiyalar>



o'zlashtirish uchun ta'lim berishni majmuiy yo'sinda olib borgan. San'at rivojining e'tiborga olinadigan bir qonuniyati bor - u ijoddir. Ijod, zamoni aks ettiruvchi mezon hisoblanadi. Chunki, musiqa ijrochiligi asosida jonli jarayon. Zamoni kuylovchi, zamon ruhiyatini beruvchi, zamon saviyasini aks ettiruvchi jarayon. Har bir zamonda musiqiy meros o'ziga xos zamonaviy asarlar bilan boyib kelgan. Ana shu yaratilgan asarlar shu zamoni kuylagan. Buni shu zamonning mohir sozanda va xonandalari yaratgan. Shunga mos cholg'u ijrochiligining, xonandalikning rivoji ko'rilgan. Bilimlarni to'la va sifatli berishda asosiy mas'uliyat pedagog xodimlar zimmasiga tushadi. Yuqori malakali raqobatbardosh o'qituvchi kadrlarni tayyorlash, ularning kasbiy omilkorligini shakllantirish, o'qituvchilarni yangi pedagogik texnologiyalar bilan qurollantirish dolzarb masala hisoblanadi. Bu borada “Ustozshogird” an'anasi yoshlarga saboq berishning o'ziga xos ko'rinishlaridan biridir.

An'anaviy xonandalik yo'nalishida bilim berish boshqa sohalarga nisbatan anchayin murakkab va uzoq vaqt talab etadi. Ushbu soha ustoz - shogird an'analari hamda asriy davom etayotgan ijro an'analari taqlidni ham talab qiladi. Maqom sehrli va an'anaviy san'at. Qalbga sokinlik, orom, ruhiyatga poklik, mo'tadillik bag'ishlaydi. Uning mo'jizakorligi bu qadimiy merosimizni o'zbek tilini mutlaqo tushunmaydigan xorijliklar ham sehrlanib, sel bo'lib tinglashida yaqqol namoyon bo'ladi. Xalqimiz madaniy merosining ajralmas qismi bo'lgan milliy maqom san'ati o'zining qadimiy tarixi, teran falsafiy ildizlari, betakror badiiy uslubi va boy ijodiy an'analari bilan ma'naviy hayotimizda muhim o'rin egallaydi. Asrlar davomida ulug' shoir va olimlar, mohir bastakorlar, hofiz va sozandalarning mashaqqatli mehnati va fidoyiligi, ijodiy tafakkuri bilan sayqal topib kelayotgan ushbu noyob san'at nafaqat yurtimiz va Sharq mamlakatlarida, butun dunyo miqyosida katta shuhrat va e'tibor qozongan. Xulosa qilib aytganda, o'zbek milliy musiqa merosi o'zbek yoshlari ijodiy tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, endilikda yoshlar tarbiyasida milliy musiqa ilmini chuqur egallashlari, ijodiy yangiliklarini kengaytirishlari maqsadga muvofiq.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. M. Yo'lchiyev An'anaviy yakka xonandalik. o'quv qo'llanma Toshkent 2018.
2. Mahmudjon Tojiboyev. O'zME. T-harfi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil;
3. S. Begmatov. Hofizlik san'ati. -T., «Musiqqa», 2007.
4. MUSIQA SOHASIDA BO 'LAJAK MUTAHASISLARNI YETUK KADR ETIB  
TARBIYALASHDA QADRYATLAR VA MILLIY AN'ANALARGA TAYANIB  
TA'LIM BERISHNING IJOBIY JIHATLARI M Akbarova, G Azamkulov, E  
Babamurodov - SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR ...,  
2024 yil
5. AN'ANAVIY XONANDALIK YO'NALISHI BO'LAJAK MUTAHASISLARIGA  
BILIM BERISHDA PEDAGOGIK KOMPETENSIYALAR Moxigul Gulomovna  
Akbarova Bakhodir Xudoykulovich Xodjakulov. "Oriental Art and Culture" Scientific  
Methodical Journal / ISSN 2181-063X Volume 3 Issue 4 / December 2022
6. AN'ANAVIY XONANDALIK YO'NALISHI BO'LAJAK MUTAHASISLARINING  
PEDAGOGIC KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH VA BU JARAYONDA  
DUCH KELINADIGAN MUAMMO VA YECHIMLAR Mohigul Gulomovna  
Akbarova "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal / [https://oac.dsmi-  
qf.uz](https://oac.dsmi-<br/>qf.uz) Volume 4 Issue 6 / December 2023